



## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYA USULLARI

**A.Rasulova,**

*FarDU*

**M.Madoripova,**

*FarDU*

**Annotatsiya:** *Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Shu ma'noda maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi tahlil qilingan.*

**Tayanch so'zlar:** *ekologiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim tizimi, ekologik tarbiya.*

Ekologik ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslari atrof-muhit muhofazasiga oid ta'limni turli bosqichlarda olib borish, shuningdek, malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Bu jarayon bog'cha, maktab, o'rta va oliy ta'lim muassasalarida maxsus o'quv reja va dasturlar asosida amalga oshiriladi. Yig'ilgan tajribalar umumlashtirilib, pedagogik shaklga keltiriladi va o'quv dasturlari, darsliklar ishlab chiqiladi [1]

Ekologik tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi va maqsadlari bolalarni tabiat bilan va unda sodir bo'layotgan voqeliklar bilan qiziqtirish, bolalar tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlashida ularga ko'maklashish va chora-tadbirlarini topish, yetarli ekologik bilimlarga ega bo'lgan holda atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishdir. Ekologik ta'lim-tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari: ular o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganish va zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tayyorlash.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo'naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatni biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tayyorlash

3. Har bir inson, jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalar, sinflarning o'zlari yashab turgan tabiat uning boyliklarini saqlashga xizmat qiladigan yoshlarni yetishtirish.

4. Jamiyat a'zolariga o'zlarining ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlari va urf-odatlarini rivojlantirishda yashab turgan joy, vodiy, adirlar, tog'larning go'zalligi, ularning inson xayoti va salomatligidagi ahamiyatini tushuntirish ishlarini olib borish.[2]

Atrof-muhit aholini o'rab turgan tabiiy va texnogen muhitni qamrab olgan yashash va mehnat qilish sharoitini jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi ta'sir va munosabatlar makon va zamonda o'zgarib, xilma-xillashib boradi. Inson faoliyati maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan.

bo'lsa, tabiatdan oqilona foydalanish shu joy, hudud, o'lkaning yashnashiga olib kelgan. Aks ta'sir esa, noqulay sharoitlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Insoniyat tarixi davomida uning tabiat bilan bo'lgan munosabati doim o'zgarib, murakkablashib borgan. Jamiyatning tabiatga ta'sirining ortib borishi va tabiatga munosabatning o'zgarib borishini besh bosqichda bo'lishi mumkin.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati. Tabiatga muhabbat keng qamrovli va murakkab his-tuyg'u bo'lib, yuksak ruhiy va aqliy qatlamlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga ma'suliyatni shakllantirishga doir tadqiqotlar olib borilgan [3]. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ularda ekologik madaniyat shakllanadi, tabiatni asrash va muhofaza qilishga bo'lgan qiziqish ortadi.


Sharq va G'arb olimlarining ekologiyaning inson hayotidagi o'rni muhim deb hisoblashadi. Jumladan, o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazimiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.[4]

Pedagoglar bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati uning bola ruhiyatiga qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy fikrlarni aytib o'tganlar. Mazkur mavzuni o'rganishda G'arb pedagoglaridan Y.A.Kamenskiy, J.J.Russo I.G.Pestolotsiy kabi olimlarning bola tarbiyasida tabiatning tutgan o'rni haqidagi ilmiy asarlari ahamiyatlidir.[5]

Bolalarni o'qitishda ekologik bilim mazmuni ularning ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta'minlash bilan erishiladi. Buning uchun ekologiyaga oid ko'rgazmalarni tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini bolalar ongiga singdirish, insonning tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning hayotiyliigi, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglash zarur. Bizning fikrimizcha, bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;
- tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;
- bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;
- ekologiya sohasida muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish.[6]

Misol tariqasida quyidagi ekologik bilimni olish mumkin: havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o'pkada gaz almashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu insonning sog'ligini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi. Tabiat shunday odil mo'jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o'simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak, o'simliklar duyosi, nazariy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidriddan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Bunda



inson o‘z atrofini o‘rab turgan tabiatni, uning o‘simliklar dunyosini ko‘z qorachig‘iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo‘lidan kelganicha ko‘proq daraxt ekishi, ko‘kalmazorlashtirishga intilishi zarur, degan xulosa chiqadi. Shuning uchun otabobolarimiz daraxt ekish, bog‘-rog‘ yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo‘ladi, deb bejiz aytishmagan. Mazkur holatni anglagan bola tabiatni asrab-avaylash tarbiyasiga ega bo‘lib boradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda ekologik tarbiyaning vaqtida va to‘g‘ri shakllanishi ularning dunyoqarashi o‘sishi va atrof-muhitga e‘tiborli bo‘lib o‘shini ta‘minlaydi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Arxiv.uz.
2. Quchqarova N. Avazmetova I. Ikromova. D. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Darslik 2023
3. Quchqarova N. Avazmetova I. Ikromova. D. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Darslik 2023. 8-bet
4. Quchqarova N. Avazmetova I. Ikromova. D. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Darslik 2023. 10-bet
5. Quchqarova N. Avazmetova I. Ikromova. D. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Darslik 2023. 14-bet
6. Quchqarova N. Avazmetova I. Ikromova. D. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Darslik 2023. 18-19 betlar